

**BOSHLANG'ICH SINFDAN IMLOVIY MASHQLAR VOSITASIDA
O'QUVCHILARNING SAVODXONLIK KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(Boshlang'ich ta'lim) 25/1-guruh kechki magistranti
Rohataliyeva Shahrizoda Lutfulla qizi*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari savodxonligini shakllantirishda imloviy mashqlarning o'rnini, ularni tizimli qo'llash metodikasi va o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishdagi samaradorlik jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot o'quvchilar imlosini mustahkamlash, to'g'ri yozuv ko'nikmalarini shakllantirish hamda xatolarning oldini olish bo'yicha amaliy metod va tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: imlo, savodxonlik, metodika, yozma nutq, imloviy mashqlar, boshlang'ich ta'lim.

АННОТАЦИЯ: В данной статье проанализирована роль орфографических упражнений в формировании грамотности учащихся начальных классов, методы их систематического применения и эффективность в развитии письменной речи школьников. Исследование включает практические методы и рекомендации по укреплению орфографических навыков, формированию правильного письма и предотвращению распространённых ошибок у учащихся.

Ключевые слова: орфография, грамотность, методика, письменная речь, орфографические упражнения, начальное образование.

ANNOTATION: This article analyzes the role of spelling exercises in developing literacy skills among primary school students, the methodology of their systematic application, and their effectiveness in improving students' writing abilities. The study provides practical methods and recommendations aimed at strengthening spelling skills, developing correct writing habits, and preventing common mistakes among learners.

Keywords: spelling, literacy, methodology, writing skills, spelling exercises, primary education.

KIRISH

Boshlang'ich sinf ta'limining eng muhim vazifalaridan biri — o'quvchilarda to'g'ri, ravon va savodli yozish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Yozma nutqning

poydevori aynan shu davrda qo'yiladi. Imlo qoidalariga tayanilgan holda yozish o'quvchining nafaqat savodxonligini, balki fikrlash madaniyatini ham rivojlantiradi. So'nggi yillarda o'quvchilarda imlo xatolarining ko'payishi, ayniqsa "harf almashishi", "qo'shimcha tushib qolishi", "so'zni ortiqcha harf bilan yozish" kabi xatolar keng kuzatilmoqda. Bu esa maktab amaliyotida metodik yangilanish, imloviy mashqlarni tizimli tashkil etish, differensial yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, imloviy mashqlarni to'g'ri tanlash o'quvchilarning savodli yozuviga bevosita ta'sir etadi.

Boshlang'ich sinflarda imloviy savodxonlikni shakllantirish til o'qitish jarayonining muhim qismidir. Ona tili ta'limining asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarni to'g'ri va savodli yozishga o'rgatish bo'lib, bu ularning yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'limda imlo qoidalarini o'zlashtirish grammatika, fonetika, leksika bo'limlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu jarayonda o'quvchilarning individual o'zlashtirish darajasi ham hisobga olinishi kerak. Imlo savodxonligi quyidagi jihatlardan muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq va tafakkur rivojlanishiga ta'siri – imloviy savodxonlik o'quvchilarning fikrlarini mantiqiy va tushunarli ifodalashga yordam beradi. Matnlarni o'qish va tushunish – o'quvchilarning yozma nutq qoidalarini o'zlashtirishi ularning matnlarni tez va aniq tushunishiga imkon yaratadi. Imloviy xatolar bilan ishlash – o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar tahlil qilinib, ularni tuzatish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilishi lozim. Mashq. Xato yozilgan so'zlarni aniqlang. So'zlarni to'g'rilab, gaplarni ko'chiring. Yer yusida hasharotlar juda ko'p. Hama hasharotlarning tanasi bosh, ko'krak, qorincha va olti oyog'chadan iborat. Kapalag, honqizi, ninachi, asalarilarni tabiatda ko'p uchratgansiz.

1. Mashqning maqsadi: O'quvchilarning yozma nutqida imloviy xatolarni to'g'rilash va to'g'ri yozish ko'nikmalarini rivojlantirish.
2. O'quvchilarning yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolar va ularning sabablari • So'zlarning noto'g'ri yozilishi: "Yer yusida" (to'g'ri: "Yer yuzida"), "Hama" (to'g'ri: "Hamma"), "kapalag" (to'g'ri: "kapalak"), "honqizi" (to'g'ri: "xonqizi") O'quvchilar og'zaki talaffuz bilan yozuv o'rtasidagi farqni anglamasligi. Mashqdan kutilayotgan natijalar O'quvchilar so'zlarni to'g'ri yozish bo'yicha ko'nikma hosil bo'ladi Talaffuz va yozuv orasidagi farqni anglash rivojlanadi. Imlo ustida ishlash. Bu yo'nalishda quyidagicha ishlar amalga oshiriladi: 1. So'zning to'g'ri, adabiy-orfoepik talaffuzi va o'qilishini o'rgatish. 2. So'z ma'nolarini tushuntirish. 3. O'quvchilar nutqiga yangi so'zlarni kiritib borish, ya'ni lug'atini boyitish.

METODLAR

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Kuzatish metodi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma ishlari va diktantlari tahlil qilindi.

- Tahlil va sintez metod

Imlo xatolarining turlari aniqlanib, ular guruhlarga ajratildi.

- Pedagogik tajriba

2–4-sinflarda imloviy mashqlarni tizimli qo'llash asosida tajribaviy mashg'ulotlar olib borildi.

- Qiyosiy tahlil

Nazariy manbalar (A.Qodirov, Sh.Usmonov, Z.Mahmudov va boshqalar) hamda amaldagi darsliklar bilan solishtirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Savodxonlikni rivojlantirishning samarali usullaridan biri lingvistik mashqlarni qo'llash bo'lib, ular orqali o'quvchilar harflarning to'g'ri yozilishi, so'z va gap tuzilishi hamda imlo qoidalarini amaliy mashqlar orqali o'zlashtiradilar. Imlo o'qitishda ko'chirish mashqlari, tanlab ko'chirish, tushirib qoldirilgan harflarni to'ldirish, diktant va tahliliy mashqlar kabi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu metodik yondashuv imloviy savodxonlikni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida imloviy savodxonlikni shakllantirish ularning kelajakdagi nutq madaniyati va yozma muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Maqolada tahlil qilingan metodik yondashuvlar – fonetik, leksik va grammatik mashqlar, interfaol o'yinlar, ko'chirish, diktant va tahliliy mashqlar orqali o'quvchilarning savodxonligi oshirilishi mumkinligi ko'rsatib berildi. Imlo qoidalarini o'rgatishda bosqichma-bosqich yondashuv, individual o'zlashtirish darajasini inobatga olish hamda o'yin va didaktik metodlardan foydalanish samaradorlikni yanada oshiradi. Shu sababli, boshlang'ich sinflarda ona tili darslari jarayonida imloviy mashqlarga muntazam e'tibor qaratish, o'quvchilarning yozma nutqini shakllantirish va xatolar ustida tizimli ishlash orqali ularda barqaror imlo ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu esa ularning kelajakda nafaqat yozma, balki og'zaki nutqida ham aniq va ravon ifodalanishiga asos yaratadi. O'quvchilarda imloviy savodxonlikni rivojlantirish tilning aniqligi, nutqning ravonligi, fikrni to'g'ri ifodalashi, kishilar bilan muloqot jarayonida chiroyli va xatosiz muomala qilishi uchun g'amxo'rlik demakdir.

Tajriba jarayonida o'quvchilarga turli xil imloviy mashqlar tizimli qo'llanildi va quyidagi natijalar olindi:

1. Harf va tovush munosabatini tushunish kuchaydi.

O'quvchilar harfni eshitish, ajratish va to'g'ri qo'llash ko'nikmasiga ega bo'ldilar.

2. Fonetik va morfologik imlo qoidalarini qo'llash malakasi shakllandi.

3. Xatolar soni sezilarli kamaydi.

Tajriba boshidagi yozma ishlarda o'rtacha 15–18 ta xato kuzatilgan bo'lsa, tajriba oxirida bu ko'rsatkich 5–7 taga tushdi.

4. Yozma nutqda izchillik va mantiqiylik o'sdi.

5. O'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalari ortdi.

XULOSA

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinfda imloviy mashqlar to'g'ri tanlansa, o'quvchilarning savodxonlik darajasi sezilarli oshadi. Mashqlar tizimli, bosqichma-bosqich va didaktik talablar asosida tashkil qilinishi kerak. Imloviy mashqlar orqali o'quvchilar nafaqat to'g'ri yozuv malakasini, balki fikrlash, eslab qolish, nutqni izchil ifodalash ko'nikmalarini egallaydilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qodirov A. "Ona tili o'qitish metodikasi". – Toshkent.
2. Usmonov Sh. "Boshlang'ich ta'lim nazariyasi".
3. Mahmudov Z. "Savod o'rgatish metodikasi".
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti.
5. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklari (1–4 sinflar).